



THE SYSTEM OF RANKS AND POSITIONS IN THE BUKHARA EMIRATE

Muxlisa Ramatjonova

Base doctorate

International Islamic Academy of Uzbekistan

E-mail: m.ramatjonova@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Bukhara Emirate, state administration, system of ranks, positions, officials, authority, court officials, social stratification, historical sources, administrative structure, governance reforms.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article analyzes the system of state administration in the Bukhara Emirate and examines the socio-political, economic, and administrative significance of ranks and positions within its governance structure. The study explores the organizational hierarchy of the Emirate, the activities of representatives of central and local authorities, as well as the role of court officials, provincial governors, and religious figures in state affairs. Based on historical sources and archival documents, the research investigates the stages of formation of the administrative system, the functional responsibilities of officials, and their role in the social stratification of society.

BUXORO AMIRLIGIDA MANSAB VA LAVOZIMLAR TIZIMI

Muxlisa Ramatjonova

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti

m.ramatjonova@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, davlat boshqaruvi, mansab tizimi, lavozim, amaldor, hokimiyat, saroy amaldorlari, ijtimoiy tabaqalanish, tarixiy manbalar, ma'muriy tuzilma, boshqaruv islohotlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligidagi davlat boshqaruvi tizimi, undagi mansab va lavozimlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma'muriy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda amirlik davridagi boshqaruv tuzilmasi, markaziy va mahalliy hokimiyat vakillarining faoliyati, shuningdek, saroy amaldorlari, viloyat hokimlari va diniy

arboblarning davlat ishlaridagi o'rnini yoritilgan. Maqolada tarixiy manbalar va arxiv hujjatlariga tayangan holda, mansab tizimining shakllanish bosqichlari, ularning funksional vazifalari va ijtimoiy tabaqalanishdagi roli o'rganilgan.

СИСТЕМА ДОЛЖНОСТЕЙ И ЗВАНИЙ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Мухлиса Раматжанова

Базовый докторант

Международной исламоведческой академии Узбекистана

E-mail: m.ramatjonova@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бухарский эмират, государственное управление, система должностей, звания, чиновник, власть, придворные должностные лица, социальная стратификация, исторические источники, административная структура, реформы управления.

Аннотация: В данной статье анализируется система государственного управления Бухарского эмирата, а также социально-политическое, экономическое и административное значение должностей и званий в структуре власти. В исследовании рассматривается структура управления в период эмирата, деятельность представителей центральных и местных органов власти, а также роль придворных чиновников, губернаторов и религиозных деятелей в государственных делах. На основе исторических источников и архивных документов изучены этапы формирования системы должностей, их функциональные обязанности и роль в социальной стратификации общества.

Kirish. Mustaqillik yillarida yurt tarixini o'rganish dolzarb masalaga aylandi va bu xususda ko'plab salmoqli ishlar amalga oshirildi. Mamlakatda tarix sohasida faoliyat olib borayotgan izlanuvchilarga keng ko'lamli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Tadqiqotchilar mamlakat tarixiga oid ko'plab o'rganilmagan masalalarni o'rganishmoqda va o'z ilmiy ishlarini keng jamoatchilikka e'lon qilishmoqda. Darhaqiqat, shu o'rinda xonliklar davri tarixini o'rganish ham muhim masalalardan biridir. Xonliklar davridagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni o'rganish orqali O'zbekiston tarixining muhim sahifalarini ochib berish mumkin.

Xususan, Buxoro amirligi tarixini o'rganish orqali vatan tarixining XVIII-XIX asrlariga oid siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy masalalarni yoritib berish mumkin. Buxoro amirligida amalda bo'lgan lavozim va mansablar tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilmagan. Buxoro amirligi

tarixining turli jihatlarini ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va o'rganish ishlari davom ettirilmoqda.

Buxoro amirligi tarixi quyidagi tarixchilar tomonidan o'rganilgan: H. Ziyoyev[1], A. Ziyov[2], Q. Rajabov[3], A. Odilov[4], Y. Avazov[5], Y. Shukurillayeva[6], G. Taniyeva[7], D. Alimova[8], J. Shodiyev[9], L. Xolnazarova[10], F. Bobojonova[11], B. Eshov[12], O. Klichev[13], D. Jamolova[14], I. Azizov[15], G. Normurodova[16], N. Petrovskiy[17], D. N. Logofet[18], N. Stremouxov, V. V. Krestovskiy[19], V. Nalivkin[20], Y. Bregel[21], Anke fon Kyugel'gen[22], O. Olufsen[23], G. Landsell[24] va boshqalar.

Buxoro amirligida mansab va lavozimlar haqida avvalo amirlik davrida yozilgan qo'lyozmalardan ma'lumotlar olish mumkin. Shu davrda tarixiy asar yozgan tarixchilar o'zlari ko'rgan, guvohi bo'lgan ma'lumotlar asosida asarlarini yozishgan va bu ularning asarlari qimmatini yanada oshiradi. Jumladan, bu davrda ijod qilgan tarixchilar sifatida Ahmad Donish ("Buxoro mang'it amirlarining muxtasar tarixi"), Muhammad Yaqub Doniyolbiy Buxoriy ("Gulshan ul-mulk"), Mir Olim Buxoriy ("Fathnomayi sultoniyy"), Muhammad Hakimxon ("Yilnomalar to'plami") va boshqa mahalliy tarixchilarni misol qilishimiz mumkin. Ularning asarlari Buxoro amirligi mavjud bo'lgan davrda, o'zlari ko'rib, guvohi bo'lgan voqealar asosida yozilganligi sababli amirlik tarixi haqidagi birlamchi manbalar deyishimiz mumkin. Shu o'rinda, Muhammad Sharif Sadri Ziyoning XIX asr oxirlariga oid asarida Buxoro amirligidagi mansab va amallar nomlari va ularning vazifalari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Manbalarning guvohlik berishicha, Buxoro amirligida boshqaruv tizimi uch guruhga bo'lingan. Bular ma'muriy, harbiy va diniy lavozimlar bo'lib, ularning tarkibida shu sohaga oid mansablar bo'lgan. Ma'muriy lavozimlarga amirdan keyin turuvchi qo'shbegi, devonbegi, mirzaboshi kabi muhim mansablar kirgan. Harbiy lavozimlarga esa faoliyati bevosita amirlikning qo'shini bilan bog'liq bo'lgan lavozimlar kirgan, jumladan, amirlikda eng yuqori harbiy mansab to'pchiboshi hisoblangan, undan keyingi o'rinlarda esa mirshabboshi va boshqalar bo'lgan. Diniy lavozim egalari esa shayxulislom, qozikalon, muftiy kabilardir. Amirlikda davlat lavozimlariga tayinlashda faqat amir xonadoniga mansub amaldorlarni tayinlabgina qolmasdan boshqa urug'dan, hatto boshqa millatdan bo'lgan shaxslar ham tayinlanganligi e'tiborga molikdir. Bu haqda tadqiqotchi J. Shodiyev Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi" nomli tadqiqotida bu haqda ma'lumotlar berib o'tgan. "Buxoro amirligida oliy harbiy-ma'muriy amaldorlar, mahalliy boshqaruvdagi asosiy mansabdorlar mang'it urug'iga mansub kishilardan tayinlangan. Shu bilan birga bu davrda mang'itlarga va boshqa o'zbek urug'lariga mansub bo'lmagan kishilarning ham davlat boshqaruvida yuqori amallarni egallash holati ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda, davlatda amirdan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan qo'shbegi mansabiga forslar orasidan tayinlangan kishilarning borligiga ham e'tibor qaratish lozim".

Buxoro amirligida amirdan keyingi eng yuqori lavozim qo'shbegi hisoblanib, uni hozirgi kundagi bosh vazir lavozimiga qiyoslashimiz mumkin. Qo'shbegi ijro hokimiyati rahbari hisoblanib, viloyat, tuman hokimlarini ham tavsiya qilganligini eslatib o'tish joiz. Tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, qo'shbegi lavozimiga tayinlangan shaxs ishbilarmon, siyosatdon kishilardan bo'lishi lozim, shuningdek, qo'shbegi lavozimiga nomzod dastavval devonbegi sifatida faoliyat yuritgan bo'lishi joiz bo'lgan.

Buxoro amirligida qo'shbegidan keyingi o'rinda turuvchi lavozim devonbegi bo'lib, u asosan moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Amirlikda moliyaviy masalalar asosan qo'shbegi tasarrufida bo'lishiga qaramay, devonbegi asosan davlat xazinasi, zakot hamda soliqlarga nisbatan boshqaruvni amalga oshirgan.

Amirlikda bundan tashqari quyidagi lavozimlar amalda bo'lgan: vuzaro- bu davrdagi vazirlar nomma-nom zikr qilinib, hammasi qo'shbegi sifatida qayd etilgan; qozi kalon – asosan qozi kalonlar; saraskarlar – asosan, harbiy lavozimdagi (to'pchiboshi, inoq va b.) shaxslar tilga olingan; dabirlar – amirlikda dabir (munshiy, kotib) lavozimida ishlagan shaxslar; saromadkor ma'murlar – amirlikning turli viloyatlarida hokim va boshqaruv lavozimida ishlagan; sarkardalar – sarkarda lavozimida ishlagan shaxslar; o'diychilar – o'daychi lavozimida ishlagan shaxslar; xos nadimlar – Nadim lavozimida ishlagan o'roq, tabib, to'qsoba va boshqalar; saromad olimlar – olimlar jamoasi vakillari (oxund, sadr, sudur, a'lam, qozi kalon, sadr-mufti, sadr-ra'is, faqih va mudarris); saromad qozilar – qozi kalon va qozilar"[25].

Amirlikda islom dini qoidalari asosiy o'rinda bo'lganligi, sud ishlari shariat asosida olib borilganligi sababli diniy lavozimlar muhim ahamiyat kasb etgan degan xulosaga kelish mumkin. Diniy amaldorlarning quyidagi tartibda faoliyatlarini olib borganlar:

Shayxulislom - eng yuqori diniy lavozim hisoblanib, u shariat qonun-qoidalari ijrosi va sud ishlarini nazorat qilgan. Qolgan barcha diniy lavozimdagi amaldorlar unga bo'ysungan.

Muftiy – diniy-huquqiy masalalar bilan shug'ullangan.

Muxtasiblar – mahalliy aholi tomonidan kundalik hayotda shariat qonun-qoidalariga amal qilinishini nazorat qilgan.

Qozikalon, raiskalon – bu mansabda faoliyat ko'rsatuvchi amaldor amirlikdagi sud boshlig'i hisoblangan. Jinoyat qilganlarga hukm chiqargan, nizoli masalalarni hal qilgan (nikoh, qarz, meros va hokazo).

Qozi askar – harbiy masalalar va harbiy jinoyatlarni ko'rib hal qiluvchi mansabdor hisoblanib, u faqat harbiylarga doir masalalarni ko'rib chiqqan va hukm chiqargan.

Tarbiyachi mudarrislar – bu mansab vakillarining asosiy vazifasi talabalarga bilim berish va ularga shariat qonun-qoidalarini o'rgatish bo'lgan. Amirlikdagi amaldorlar ularning qo'lida tahsil olishgan, shu sababli bu lavozim egalariga amirlikda alohida ahamiyat qaratilgan.

A'lamlar – davlatda fiqhiy masalalar bo'yicha fatvo chiqaruvchi shaxslar.

Sadr – vaqf ishlari va mulklari bilan shug'ullangan (amirlida yer egaligining asosiy 3 ta turi bo'lib, ulardan biri vaqf yerlaridir).

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Rossiya imperiyasi bosqini davrida boshqaruvda o'zgarishlar yuz berdi. Rus boshqaruviga doir namunalar amirlik boshqaruviga ham kirib keldi. Bu xususda G. Normurodova "Buxoro amirligi ijtimoiy qatlamlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi roli" nomli tadqiqotida bu haqda ma'lumotlar keltirib o'tgan. Unda quyidagicha keltiriladi: "Amir Abdulahadxon (1885-1910) va Amir Olimxonlar (1910-1920) hukmronligi davrida davlat boshqaruv sohasida turli ijobiy ishlarning amalga oshiriladi. Ma'lumki, bu hukmdorlar Rossiyaning markaziy hududlarida bo'lib, u yerdagi islohotlar bilan yaqondan tanishishga muvaffaq bo'lgan. Shuni ta'kidlash lozimki, davlat boshqaruvining muayyan sohalarini isloh qilish, amirlikda Rossiya imperiyasi bosqinidan oldin ham amalga oshirilgan, lekin protektorat davrida, aynan Rossiyaning boshqaruvi sohasiga oid ayrim namunalar, tartiblarning kirib kelishi bu boradagi o'ziga xos jihatlardan sanaladi. Bularni davlat xizmatchi xodimlarining maqomi, ish yuritish va harbiy sohalarda qo'llanilgan ma'lum tartiblar misolida kuzatish mumkin va bular amirlik boshqaruvida ham qo'llanila boshlangan"[26].

Buxoro amirligi tarixini yoritishda qo'lyozma manbalar, arxiv hujjatlari fundamental manbalar bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Qushbegi arxivi hujjatlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Buxoro amirligi boshqaruvida qushbegi ko'plab vakolatlarga ega bo'lgan, bundan kelib chiqadiki, qushbegi amirlikning amirdan keyingi o'rinda turuvchi eng yuqori lavozim egasi bo'lgan, "Qushbegi arxiv hujjatlari" eng muhim manbalardan biri sanalib, hozirgi kunda O'zbekiston Milliy arxivida I-126 fondida saqlanmoqda. Ushbu arxiv hujjatlarini quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

1. Siyosiy hujjatlar;
2. Iqtisodiy hujjatlar;
3. Ijtimoiy masalalarga oid hujjatlar;
4. Maishiy hujjatlar;
5. Madaniy hujjatlar;
6. Diniy hujjatlar.

Barcha hujjatlar qushbegi qo'lidan o'tganligi sababli ular qushbegi arxiviga yig'ilgan va hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Ushbu hujjatlarda o'z davriga oid muhim va qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ma'muriy masalalarga oid hujjatlar ham muhim ahamiyat kasb etib, ularda amaldorlarning lavozimiga tayinlanish tartibi, ularga qo'yiladigan talablar ham o'z aksini topgan. Har bir hujjat muhrlangan. Mazkur manbalar tadqiqotchilar uchun dasturulamal bo'lib

xizmat qilib kelmoqda. Hujjatlarni o'rganish asosida bevosita o'sha davr haqida muhim xulosalarga kelish mumkin.

Xorij tadqiqotchilaridan Anke fon Kyugelgen “Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.)” (O'rta Osiyo mang'itlar sulolasining qonuniylashtirilishi ularning tarixchilari asarlarida) asarida mang'itlar sulolasi tarixi haqidagi manbalar tahlil qilingan va ma'lumotlar berilgan. Anke fon Kyugelgen o'z tadqiqotida mang'itlar davrida faoliyat olib borgan har bir amirga alohida to'xtalib o'tgan. Saroyda mavjud bo'lgan mansablar haqida ham qimmatli ma'lumotlar berganligini ko'rishimiz mumkin. Amirlikda fuqarolik, harbiy va diniy mansablar bo'lganligi haqida ma'lumotlar bergan, lavozimlarni tasniflagan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, amirlikdagi boshqaruv tizimining qonun-qoidalari mavjud bo'lgan, lavozimlarga tayinlash jarayonida ham o'ziga xos shartlari bo'lgan. Mansablarga qabul qilish jarayonida nomzodlarning ma'lumoti, shaxsiyati, xalq orasidagi obro'-e'tibori ham muhim hisoblangan. Amirlik boshqaruvi o'z davrining talablariga javob bera olganligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Buni birgina lavozimlarning alohida idoralarga taqsimlanganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyoyev H.Z. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 2006.
2. Ziyo A. O'zbekistonning yangi tarixi. 1,2-kitoblar. – Toshkent: Sharq, 2000.
3. Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati. (1920-1924 yillar). – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
4. Odilov A.A. “Buxoro amirligida milliy-ozodlik harakatlari tarixi (Abdumalik to'ra boshchiligidagi xalq ozodlik harakati misolida) – dis.... tarix fanlari nomzodi – Toshkent, 2004.
5. Avazov Y.U. “XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligining janubiy-sharqiy bekliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot” - dis.... tarix fanlari nomzodi – Toshkent, 2005.
6. Shukurillayeva Y.A. “Buxoro amirligida qo'shin va harbiy ish (1756-1920 yillar)” - dis tarix fanlari nomzodi – Toshkent, 2006.
7. Taniyeva G.M. “Qarshi viloyatining Buxoro amirligi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni (XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmi)” - dis.... tarix fanlari nomzodi – Toshkent, 2008.
8. Alimova D. A. История как история, история как наука В 2-х т. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.

9. Shodiyev J.M. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi. dis.... yuridik fanlari nomzodi – Toshkent: 2009.
10. Xolnazarova L.S. “XIX-XX asrning boshlarida Buxoro amirligida kitobat va kutubxonachilik tarixi” - dis.... tarix fanlari nomzodi – Toshkent, 2011.
11. Bobojonova F.X. “Buxoro amirligida ta’lim tizimi (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida)” - dis.... tarix fanlari nomzodi – Toshkent, 2011.
12. Eshov B. “O‘zbek davlatchiligi va boshqaruvi tarixi” – Toshkent, 2012.
13. Klichev O.A. “Rossiya imperiyasi siyosiy agentligi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi yozishmalar Rossiya-Buxoro munosabatlari tarixini o‘rganish manbasi” – dis.... tarix fanlari nomzodi – Toshkent, 2018.
14. Jamolova D.M. “Buxoro amirligi jadidlar va qadimchilar faoliyati” (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) – dis.... tarix fanlari nomzodi – Toshkent, 2019.
15. Azizov I.Sh. “XIX asrning so‘nggi choragi – XX asr boshida Buxoro amirligida soliq tizimi” - dis.... tarix fanlari nomzodi – Toshkent, 2019.
16. Normurodova G.B. “Buxoro amirligi ijtimoiy qatlamlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi roli” (1868-1920) - dis.... tarix fanlari doktori – Toshkent, 2020.
17. Petrovskiy N. Moya poyezdka v Bukharu. // Vestnik Yevropy. — 1873. — № 3.
18. Логофет Д. Н. Страна бесправия. Бухарского ханства и его современное состояние – СПб, 1909.
19. Крестовский В.В. В гостях у Бухарского эмира. Спб. Издание А.С. Суворина, 1887. – 374 с.
20. Наливкин В.П. Полвека в Туркестане... . Туземцы раньше и тепер. Примеч.сост. С. Абашин. // www.http.acad.edu. С. 380-480.
21. Bregel, Y. (2009). The new Uzbek states: Bukhara, Khiva and Khoqand: C. 1750–1886. In N. Di Cosmo, A. Frank, & P. Golden (Eds.), The Cambridge History of Inner Asia: The Chinggisid Age (pp. 392-411). Cambridge: Cambridge University Press
22. Legitimizatsiya sredneaziatskoy dinastii mangitov v proizvedeniyakh ikh istorikov (XVIII—XIX vv.). Almaty: Dayk press, 2004
23. Olufsen O. The emir of Bokhara and his country; journeys and studies in Bokhara (with a chapter on my voyage on the Amu Darya to Khiva).
24. Landsell Henri. Russian Central Asia, including Kuldja, Bokhara, Kxiva, and Merv. Volume 1. London, 1885. – 687 p.
25. Normurodova G. Buxoro amirligi ijtimoiy qatlamlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi roli (1868-1920). Diss. Tarix fanlari doktori. – Toshkent, 2020. B. 137

26. Normurodova G. Buxoro amirligi ijtimoiy qatlamlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi roli (1868-1920). Diss. Tarix fanlari doktori. – Toshkent, 2020. B. 136.